

## INGLIZ TILI DARSLARIDA TINGLAB TUSHUNISH KO'NIKMASINI O'QITISH YUZASIDAN KELIB CHIQUADIGAN QIYINCHILIKLAR VA METODLAR

*Qudratova Laylo*  
*DTPI 1-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ingliz tilining tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantirishda o'rganuvchilar duch keladigan qiyinchiliklari yuzasidan izlanishlar olib borilganligi natijalari tahlil qilinadi. Bundan tashqari bunday muammolarni yengish usullari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Nutq, ekstralingvistik, lingvistik, psixologik, audio matn, tinglab tushunish.

### DIFFICULTIES AND METHODS OF ENHANCING THE TEACHING LISTENING SKILLS IN ENGLISH CLASSES

*Qudratova Laylo*  
DIEP 1st year graduate student

**Abstract:** This article is devoted to the analysis of the difficulties faced by learners in the development of listening comprehension skills of the English language. Theoretical data about the analysis of the difficulties and teaching methods are discussed and analyzed with reasonable examples.

**Key words:** Speech, extralinguistic, linguistic, psychological, audio text, listening comprehension.

Til insoniyat muloqotining asosiy mezoni bo'lib, turlicha ma'no va hissiyotlarni ifodalash uchun ishlatiladigan tovushlar va so'zlar yig'indisidir. Tilning turli sohalari bo'yicha o'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til o'rganish g'oyatda murakkab jarayon bo'lib, inson ongiga, avvalo, tinglash, so'ng uni muloqot sifatida chiqarish, so'ngra o'qish orqali yanada rivojlantirish va oxirida uni matn holiga keltirib mustahkamlashni talab etadi. Texnologiya, tilshunoslik va pedagogikaning rivojlanib borishi til o'rgatish va o'rganish jarayonlarining yanada mukammallashib borishiga zamin yaratdi. Inson zoti bir-biri bilan doimiy ravishda kundalik muloqotni amalga oshirar ekan, tinglash orqali ikkinchi suhbatdoshining nutqini anglab olishga harakat qiladi. Nutqni tinglab tushunish deganda, ovozli nutq (gapirish) chog'ida quloq solish, idrok etish va fahmlash anganadi. Umuman „nutq“ deganda gapirish, tinglab tushunish, o'qib tushunish va yozuv tushuniladi. Aslida „gapirishni tinglab tushunish“ degan ma'qulroq<sup>1</sup>.

Demak, tinglab tushunish jarayoni pedagogik nuqtai nazardan til o'rgatishning asosiy mezoni ekan. Maqolamizda ingliz tili darslari davomida o'quvchilarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni

<sup>1</sup> J. Jalolov-“ Chet tilini o'qitish metodikasi”, Toshkent, 2012, 219-bet

yengib o'tishga doir bir qancha usullar tahlil qilinadi. Tinglab tushunish tashqi muhitdan kelayotgan ma'lumotlarni ong orqali idrok qila olish qobiliyatidir. Bu esa chet tili ya'ni biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan ingliz tilida har qanday ma'lumotni eshitib so'ngra anglab olishdir. Tinglab tushunish jarayonida o'quvchi yoshlar bir qancha muammolarga duch kelishadi. Taniqli olim I.Yoqubov tinglab tushunishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni 3 turda tavsiflab bergan. Ular:

- 1.Ekstralingvistik
- 2.Lingvistik
- 3.Psixologik<sup>2</sup>

Ushbu ta'rifdan kelib chiqib yuqoridagi qiyinchiliklarning yuzaga kelish sabablarini o'ylab ko'ramiz. Avvalo, **ekstralingvistik qiyinchiliklar** tarkibiga tinglash jarayonining muhiti, darsda ishtirok etayotgan o'quvchilar soni, audio materiallar sifati, nutqning tezligi yoki sekinligi, nutq intonatsiyasi, tovush temblari, bajarilayotgan vazifaning tushunarligi kabilar kiradi. **Lingvistik qiyinchiliklar** esa o'z navbatida tilning grammatik jihatlari bilan bog'liq bo'ladi. Ular sirasiga fonetik (tovushlarni farqlash), morfologik (so'zlarning yasalishini tahlil qila olmaslik), sintaktik (so'zlarni to'ri qo'llash ularni bog'lash) va boshqa qiyinchiliklar misol bo'ladi. **Psixologik qiyinchiliklar** esa o'rganuvchining psixikasi bilan bog'liq bo'ladi. Misol uchun, bolaning xarakter tipi ham bunga misol bo'ladi. Ba'zi bolalar eshitishdan ko'ra ko'rib yoki ushlab bajarishni afzal ko'radi va aynan mana shu sabab unda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Boshqa olim J.Jalolov tinglab tushunishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni boshqacha usulda ta'riflab bergan. Ular:

1. Tilga oid shakliy qiyinchiliklar;
2. Mazmunga oid qiyinchiliklar;
3. Nutqiy idrok qilishning shart sharoitlariga oid qiyinchiliklar;
4. Nutq shakliga oid qiyinchiliklar;
5. Tilshunoslik nuqtai nazaridan sodir bo'ladigan qiyinchiliklar;<sup>3</sup>

Ushbu ta'riflarning tub ma'nosiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tinglab tushunish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar shaxsning o'ziga, vaziyatiga va jarayondagi holatiga bog'liqdir. Ammo asosiy muammolar tilning grammatik jihatlarni bilmaslik va ularni qo'llay olmaslik yuzasidan paydo bo'lar ekan. Ana shunday jihatlarni bartaraf etishning turli usullari, va ularga eltuvchi turli metodlar olimlar tomonidan ishlangan va ulardan to'g'ri foydalana olish dars jarayonida bolada tinglab tushunish bilan bog'liq muammolarni yengishga asos bo'la oladi. Faoliyatim davomida o'zim tajriba sifatida o'rgangan asosiy usullardan biri o'quvchi yoshlarga har darsda xorijiy tilda yozilgan podcastlar, video materiallar yoki shunchaki warming up (boshlash) qismida biror bir darsga aloqador qo'shiqlar qo'yish orqali ularning tinglash jarayoniga eshitishlarini moslashtirish so'ngra asosiy mavzuga oid listening activity lar bajartirishdan iborat. O'quvchi tinglash jarayoniga moslashar ekan, menimcha, o'tiladigan mavzu nima bo'lishidan qat'iy nazar listening tasklar unga bog'liq ravishda tashkil etilishi kerak. Misol uchun grammatika yuzasidan sifat mavzusi o'tilsa, listening taskda note completion (bo'sh o'rinlarni to'ldirish) yoki

<sup>2</sup> Z. No'monova, G. O'rinboeva- Til o'rganishda (listening) tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishning qulay usuli (ingliz tili misolida)

<sup>3</sup> J.Jalolov-“ Chet tilini o'qitish metodikasi”, Toshkent, 2012, 219-bet

matching(moslashtirish) kabi vazifalardan foydalanish mumkin. Ushbu fikrlarimiz isboti tariqasida ingliz tilida nutqni tinglab tushunishni o'rgatishni 2 xil usuli mavjud.<sup>4</sup>

**a)Tayyorlov bosqichi                      b)Asosiy bosqich**

**Tayyorlov bosqichida** o'qituvchi tinglab tushunish uchun mavzu tayyorlaydi va u asosida nutqni,matnni tayyorlaydi. Matn to'liq analiz qilinadi,jumladan, yangi so'zlar,grammatik qoidalar,tovushlar o'rganiladi. Matn mazmuni to'liq tahlil qilinadi.

**Asosiy bosqichda** mavzu asosida mazmunli,davomli notanish monologik ,dialogik nutqni tinglab tushunish,taqlid qilish,malaka ko'nikmalarini shakllantirish ko'rib chiqiladi. Ushbu bosqich quyidagi ketma ketlikda sodir bo'ladi.

**1.        Tinglab tushunishni (listening)o'tkazishga tayyorlanish;**

Ya'ni ushbu jarayonda o'qituvchi kerakli bo'lgan barcha jihozlarni tayyorlashi,o'quvchining matnning og'zaki shaklini eshitishga avvaldan tayyorlanib olinganligi, uning ushbu vazifa bilan qanchalik tanishligi kabi masalalarga e'tibor qilinadi.

**2.        Tinglab tushunish jarayonini o'tkazish;**

Bu holatda o'quvchi faqatgina o'ziga berilgan matnning audio shaklini eshitadi, uni analiz qiladi,nima demoqchi ekanligini tushunishga harakat qiladi. Bunday usullar orqali listening ko'nikmasini rivojlantirish o'quvchida boshqa ko'nikmalar yuzasidan ham bilimlarini mustahkamlab borishiga zamin yaratadi.

Bugun biz axborot rivojlangan bir davrda yashayapmiz. Ilm olish uni chuqur egallash,xususan, maqolamizda keltirilgan o'zga tilning bir qismini o'rganish ham katta mahorat talab qiladi. Tinglab tushunish biz yaratadigan nutqimizning bir bo'lagidir. Uni yuqorida keltirilgan qiyinchiliklari doirasida tahlil qilib,berilgan usullar bo'yivha o'rgatib borilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylayman.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Hoshimov O`, Yokubov I. Ingliz tili o`qitish metodikasi, Toshkent, 2003-yil
2. J.Jalolov Chet tilini o`qitish metodikasi,Toshkent,2012-yil
3. Z. No'monova, G. O'rinboyeva- Til o'rganishda (listening) tinglab tushunish qobiliyatini rivojlantirishning qulay usuli(ingliz tili misolida)

---

<sup>4</sup> Hoshimov O`, Yokubov I. Ingliz tili o`qitish metodikasi, Toshkent, 2003-yil, 131-bet